



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 181 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	106
Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI	111
G'afforova Dilfuza Jo'rayevna	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
Mustafayeva Muxlisa	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
Rustamova Manzura Ne'matjanovna	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	126
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВУЗА КАК СИСТЕМА САМООРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	131
Рахманова Диляра Рустемовна	
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАЗАХОВ И УЗБЕКОВ	136
Айдарова Диана Смутуллаевна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОМПЛЕКСА НЕПОЛНОЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ	138
Халмуратова Дилором	
TA'LIM SOHASIDA OROLBO'YI IQLIMIGA SHAXSNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINI O'RGANILISHI.....	142
Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna	
INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.....	145
Axmedov Alisher Gayrat o'g'li	
TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	150
A.K.Shamshetova	
AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDI O'RGANILISHI	153
Samatova Sevara G'ayratovna	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	157
Yadgarova Ozoda Ibragimovna	
MILLIY TARBIYANING PSIXOLOGIK METADOLOGIK ASOSLARI	160
Jabborov Xazrat Xusenovich	
SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHDA TOLERANTLIKNING O'RNI	166
Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna	



TALABALARDA BAXTLI OILA TO'G'RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	171
Abdurayimov Sardorbek Odiljon o'g'li	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOIIY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	175
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	

MILLIY TARBIYANING PSIXOLOGIK METADOLOGIK ASOSLARI

Jabborov Xazrat Xusenovich

TDSHU, AIFU universitetlarining professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)
xxjabborov@mail.ru ORCID 0000-0002-0722-8265

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, metodologik asoslari hamda milliy tarbiya shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar empirik tahlil qilingan. Psixometrik testlar va ijtimoiy-psixologik so'rovnoma asosida olingan natijalar milliy tarbiya tizimining shakllanish jarayonidagi muhim psixologik determinantlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari milliy tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, g'oya, mafkura.

Abstract: The article presents empirical findings derived from psychometric tests and socio-psychological surveys examining the socio-psychological characteristics, methodological foundations, and determining factors influencing the formation of national education. The obtained results allowed the identification of key psychological determinants shaping the system of national education. The study contributes to a deeper understanding of both theoretical and practical aspects of national education.

Key words: education, virtue, morality, national education, national character, idea, ideology.

Аннотация: В статье представлены результаты эмпирического анализа психометрических и социально-психологических опросов, посвящённых исследованию социально-психологических особенностей национального воспитания, его методологических основ и факторов, влияющих на формирование национального воспитания. Полученные данные позволили выявить ключевые психологические детерминанты формирования системы национального воспитания. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию теоретических и практических аспектов национального воспитания.

Ключевые слова: воспитание, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология.

KIRISH

Milliy tarbiya — xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari hamda ma'naviy-axloqiy tamoyillari asosida avloddan-avlodga o'tadigan tarbiyaviy jarayon bo'lib, u shaxsning ijtimoiy yetuklikka erishishini ta'minlashga qaratilgan murakkab psixologik va madaniy tizimdir. O'zbekistonda milliy tarbiya tizimi mustaqillik davridan boshlab yangicha metodologik asosda qayta talqin qilinib, ma'naviyat, milliy g'oya va shaxsning psixologik rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiqotlarning markaziga chiqarildi.

Tadqiqot maqsadi: yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek milliy tarbiyasi metodologiyasi Sharq antropologiyasi va xalq pedagogikasiga tayangan holda shakllangan. Uning nazariy ildizlari jadidchilik merosi, A. Avloniy, A. Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi ma'rifatparvarlarning tarbiya haqidagi g'oyalariga borib taqaladi. Mazkur konsepsiyada inson komilligi faqat bilim bilan emas, balki "ma'naviy uyg'oqlik" bilan belgilanadi.

Masalaga daxldor tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili milliy tarbiyaning metodologik asoslari uch darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi:

- Falsafiy-dunyoviy asos — inson mohiyatini ezgulikka yo'naltiruvchi dunyoqarash tizimi;
- Ijtimoiy-madaniy asos — mahalla, urf-odatlar, marosimlar orqali shakllanuvchi ijtimoiy psixologiya;
- Psixologik asos — shaxsda or-nomus, g'urur, hurmat va mas'uliyat kabi hissiy-axloqiy mexanizmlarning uyg'unlashuvi.

Milliy tarbiya, avvalo, shaxsning ichki dunyosini boshqaruvchi ma'naviy-hissiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni faqat tashqi xulq me'yorlariga moslashishga emas, balki "ichki ongini tarbiyalash" tamoyiliga asoslanadi. O'zbek mentalitetida tarbiya jarayoni nafaqat buyruq yoki nazorat orqali, balki uyat hissi, or-nomus, ma'naviy mas'uliyat kabi psixologik boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshadi.



Psixologik nuqtai nazardan, milliy tarbiya quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Identifikatsion funksiya — shaxsning “men kimman?” degan savolga milliy-madaniy javob topishi;
- Regulyativ funksiya — xulqni ijtimoiy me’yorlar asosida ichki nazoratga olish;
- Motivatsion funksiya — ezgulik, vatanparvarlik, hurmat, fidoyilik kabi qadriyatlarga intilishni kuchaytirish;
- Emotsional stabilizatsiya — oilaviy va jamoaviy qo’llab-quvvatlash muhitida ruhiy muvozanatni ta’minlash.

O’zbek psixologiyasi nuqtai nazaridan, milliy tarbiya jarayonida majburiylik emas, balki ichki ixtiyorlilik va axloqiy uyat hissi ustuvor o’rinda turadi. Bu esa uning G’arb pedagogikasidan tub farqini tashkil etadi. Bugungi globallashuv va vertuallashuv davri xalqlar orasida o’ziga xos madaniy uyg’unlashuvni yuzaga keltirmoqda. Bu holat, albatta, umuminsoniy g’oyalarni kuchaytirishi bilan bir qatorda, millatlarning o’ziga xosligini kamaytiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, hozirgi kunda har bir millatda kuzatilayotgan bir tendensiya ko’zga tashlanmoqda, ya’ni har bir millat va xalq o’z yoshlarida milliy fazilatlar asosida milliy xarakterini, milliy o’zligini asrab qolishga qaratilgan ta’sirchan texnologiyalardan foydalanmoqda. Mazkur masala bo’yicha davlat dasturlari, konsepsiyalar, qarorlar va farmonlar qabul qilinmoqda. Demak, bu jarayonlardan shuni anglash mumkinki, har bir millat o’zligini asrab qolishga, millat sifatida yashab qolishga, xalq sifatida esa o’zining etnopsixologik va etnopedagogik qadriyat hamda an’analarini kuchaytirishga intilishi zarur bo’ladi [5].

Milliy tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari haqida gap ketganda, beixtiyor taniqli o’zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so’zlari e’tiborni tortadi [2, c.108–118]. Buning isboti sifatida, bugungi kunda ijtimoiy fanlarda inson omili va uning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo’yicha zamonaviy tadqiqotlarga talab va ehtiyojning oshganligini ko’rsatish mumkin.

Mazkur tadqiqotlarning aksariyatida shaxsning barkamolligi, ma’naviy yetukligi yoki, aksincha, axloqiy tanazzulning asosiy omillari bo’yicha juda qiziqarli empirik ma’lumotlar qo’lga kiritilmoqda. Ammo ular orasida insonni tashvishga soladigan, dastlab e’tiborsizdek tuyuladigan, ammo oqibatda insoniyatni ma’naviy tanazzul va johillikka olib boradigan bir omil — tarbiya masalasiga e’tiborsizlik illati — millatlarning axloqiy tanazzulining asosi desak, bu hech mubolag’a bo’lmaydi.

Shu sababli, biz ushbu maqolamizda yoshlarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalashning metodologik jihatlari, yoshlarning milliy tarbiya masalasiga munosabatlari hamda milliy tarbiya metodlarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratdik [6].

Mazkur masalaning dolzarbligini 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori bilan ham izohlash mumkin. Mazkur konsepsiyada bugungi yoshlarimizning shaxsiy va ijtimoiy farovon, baxtli hayot qura olishlari uchun zarur bo’lgan aniq fazilatlar majmui belgilab berilgan.

Qarorning 2-bandida konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlari rejasining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida “Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag’rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish” [1] zarurligi ta’kidlangan.

Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondashishda maqsadli innovatsion yondashuvi bo’lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosda qurishni va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash ketayotgan bir paytda, eng katta sarmoya farzandning yaxshi ta’lim va tarbiyasiga tikilayotganligi, albatta, ijobiy holat hisoblanadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish metodlaridan, shuningdek quyidagi psixodiagnostik metodikalaridan foydalanildi: N. P. Kapustinning «O’quvchilar tarbiyasi darajasini diagnostikalash» metodi; E. G. Eydemiller va V. Yustiskisning «Tarbiya nuqsonlari omillarini aniqlash» testi; T. I. Pashukova tomonidan ishlab chiqilgan «O’smirlar shaxsidagi egotsentrik yo’nalishlarning sifat ko’rsatkichlari» metodikasi; V. Stefansonning «Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o’rganish» testi; Y. Kulning «Rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi» metodikasi; S. R. Panteleyev va V. V. Stolin tomonidan ishlab chiqilgan «Subyektiv lokal nazorat» testi; Y. V. Zalyubovskayaning «Shaxs tomonidan guruhni idrok etishni o’rganish» metodikasi; Meri Edvarsning «Shaxsni ma’qul topilgan jihatlarni aniqlash» so’rovnoma; M. Kubishkinaning «MAS» so’rovnoma hamda Sh. R. Baratov va X. X. Jabborov hammuallifligidagi «Siz va farzandlaringiz» so’rovnomasidan foydalanildi.

Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlari yordamida aniqlanib, Styudentning t-mezone, K. Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti va faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Ota-onaning bolaga munosabati natijasida farzandga nisbatan g'amxo'rlik qilish, kuchli hissiy aloqa bildirishning «o'rtoqlik» (hamkorlik) omiliga bog'liq ravishda kuchli namoyon bo'lishi tufayli o'smirlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi «mustaqillik», «muloqotmandlik», «kurashga tayyorlik», «jamoaviylik», «affiliatsiya», «tartib-intizom», «ko'makni qabul qilish» kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar aniqlangan.

Shuningdek, shaxs xususiyatlariga ko'ra xalqimiz orasida ko'proq milliylik kasb etgan va milliy qadriyatga aylangan «mehmondo'stlik», «tinglovchanlik», «muruvatlilik», «g'amxo'rlik», «hojatbarorlik», «ahillik» va «hurmatlilik» kabi fazilatlarning xulqda ustuvor namoyon bo'lishi sababli, o'smirlarda milliy tarbiyalanganlikni ta'minlovchi quyidagi jihatlar shakllangani kuzatildi: o'z-o'ziga bo'lgan ijobiy munosabat, o'ziga ishonch, o'zini o'zi hurmat qilish, boshqalardan ijobiy munosabat kutish hamda «Men»ni «Biz»ga proeksiyalash kabi tayanch mezonlarni differentsiatsiyalash zarurati yuzaga keldi.

Bugungi zamon va makon shaxsning eng muhim ichki resurslaridan biri bo'lgan tarbiya masalasiga yangicha talablar qo'yayotgani biz — soha vakillari — uchun doimo diqqat markazida bo'lishi lozim. Zero, shiddati ortib borayotgan virtualashtirish jarayoni sharoitida ta'lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslangan va qat'iy talablar bilan yondashish nihoyatda muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi.


Shu bois biz maqolamiz doirasida yoshlarning milliy tarbiya masalasiga munosabatlari va daxldorlik darajalarini aniqlash maqsadida ijtimoiy-psixologik so'rovnoma o'tkazdik, uning tahlilini amalga oshirdik va natijada quyidagi empirik ma'lumotlarni qo'lga kiritdik.

Talabalarga «Sizdagi tarbiyaning shakllanishiga ko'proq qaysi omil ta'sir ko'rsatgan?» degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo'lga kiritildi.



Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turibdiki bugungi kunda yoshlar tarbiyasini shakllanishida eng ko'p ta'sir omili bu ommaviy axborot vositalari (40%) ekan. Keyingi ta'sir omillarini oila (27%), ta'lim (18%), mahalla (15%) tashkil etgan. Demak biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha targ'ibot ishlarini ommaviy axborot vositalarida kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan.


Talabalarga «Sizda shakllangan xarakter va fazilatlarni ko'proq qismini kimdan o'rgangansiz?» degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo'lga kiritildi.



Demak yoshlar tarbiya ishlarida otaning (60%) roli va o'rnini ko'proq yo'qlashdi. Demak oilada farzand tarbiyasi bo'yicha targ'ibot ishlarida otaning tarbiya ishlar bilan shug'ullanishi bo'yicha ko'rsatmalarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.




Keyingi savol "Sizningcha tarbiya nechi yoshdan boshlab shakllanadi?" deb nomlandi va quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi.



Respondentlarning 60% ona qorniligidan, 22% 3 yoshdan va 18% aniq bilmayman degan javobni bergan. Bizni tarbiya borasidagi ishlarimizni kemtik joylarini aynan 18% respondent aniq bilmayman degan javob ko'rsatib berdi. Qolaversa talabalarning 22% ham tarbiyani 3 yoshdan boshlanadi deb javob berishyapti bu ham xavotirli javob aslida. Chunki tarbiya ishlariga 3 yil kechikiliyapti.

Navbatdagi savol "Sizningcha tarbiyada kimlarni roli ko'proq bo'lishi kerak?" dagan ma'noda bo'ldi va quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi.



Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turibdiki, tarbiyada ota-onaning roli ko'proq ekan. Shunday ekan jamiyatda milliy tarbiya masalasida, oilada farzand tarbiya masalasida ota-onaning roldan unumli foydalanish kerak. Ota-onalarni tarbiyaning milliy va zamonaviy metodlari bilan ta'minlash kerak. Mahallalarda maqsadli va manzilli seminar-treninglar tashkil etib ota-onalarni tarbiya metodlari bo'yicha bilimlarni oshirish maqsadga muvofiq.

Navbatdagi savol "Milliy tarbiyani ko'proq nimlardan o'rganasiz?" ma'nosida berildi va quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi.

Yoshlarimiz milliy tarbiyani eng ko'proq jamiyatdan (50%) o'rganishayotgan ekan. Demak tarbiya ishlarida jamiyatimizda jamaotchilik nazoratini kuchaytirishimiz kerak ekan.

“Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga quyidagicha javob beroishdi.

“Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga 28% ota-onalar tarbiya metodlarini yaxshi bilmaydi, 18%i tarbiyadagi oilaning mas’uliyatini anglamaydi deb, 22% i farzandi bilan muloqot qilmasligi deb javob berishgan bo’lsa 32%i mazkur savolga bilmayman deb javob bergan, bu ko’rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e’tibor borasida masalani jiddiy o‘ylab ko’rishlarini taqazo qiladi.

Navbatdani savollar “Ota-onangiz siz bilan tarbiya mavzusiga bir kunda qancha vaqt ajratadi?” deb nomlandi.

Tekshiriluvchilarni 58% bir kunda ota-onasini tarbiya mavzusiga 5-10 minut ajratishlarini ta’kidlashgan, 20% 15-30 minut va eng og’riqligi 12% bir hafta davomida 10-15 minut suxbatlashiladi va yana 10% tekshiriluvchilar tarbiyasizlik qilib qo‘ygan vaziyatlarimda bu mavzuga vaqt ajratiladi deb javob berilgan. Dkmak yuqoridagi ko’rsatkichlardan ko’rinib turibdiki ota-onalarimiz o‘z farzandlariga ko’proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq. Zero bu tahlil va ochiq axbort asrida bizni farzandalarimizga tarbiya beradigan buzg’unchi va vayronkorlik ruhidagi muxolifatlar ham yo‘q emas[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi empirik natijalarda tarbiya ishlari va metodikasi bilan bog‘liq faoliyatimizga nisbatan e’tiborsizlik holatlari yaqqol ko‘zga tashlandi. Zero, buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliyning quyidagi fikrlaridan ham buni anglash mumkin. Mutafakkirimiz ta’kidlaganidek:

“Bolalar ota-onalarga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, shuni qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, shunga egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu yo‘lda o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim va ustozlari ham sherik bo‘ladi. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi.”

Bugungi kunda yoshlarning axloqiy masalalariga e’tiborsizlik butun dunyoda ko‘plab ma’naviy tahdid va illatlarni keltirib chiqarmoqda — bu esa hech kimga sir emas [9].

Yuqoridagi so‘rovnomalar tahlilidan ayon bo‘ldiki, ota-onalar farzand tarbiyasida ma’rifatli bo‘lishlari talab etiladi. Zero, bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi, tarbiya metodlarini puxta o‘zlashtirishi lozim, chunki farzand ta’lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng foydali va eng kafolatli sarmoyadir [3, c.320].

Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va omillarini tahlil qilish, ta’lim tizimida o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash bilan bog‘liq jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarda milliy fazilatlarini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari bugungi asrning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada ota-onalar va tarbiyaga mas’ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni bilmasdan turib yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash imkonsizdir.


Qolaversa, bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra virtual voqelik ta’siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir davrda, tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlar asosida tashkil etish nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu sababli, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr 1059-sonli Qarori.
2. X.Jabborov. “Milliy tarbiya - ijtimoiy-psixologik, qonuniy va ob’ektiv jarayon sifatida”. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. ISSN: 2181-1776. “Bilig – ilmiy faoliyat” nashri <http://bilig.academiascience>. or. Jild: 03 | nashr: 02 | fevral 2022. 108-118
3. M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” Toshkent «Ma’naviyat» 2013. 320 b.
4. Jabborov Xazrat Xusenovich. [Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari](#). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-1-209-219>.
5. Jabborov X.X. “O‘smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
6. Жабборов Хазрат Хусенович. [Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум](#). СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.



7. Жабборов Хазрат Хусенович. [The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents](#). European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.
8. Jabborov Kh.Kh.. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
9. Khazrat H. Jabborov. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –B 1838-1843.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalar va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.